

**Yakubova Shamshinur**

i.f.n.dotsent

**Qosimov Jahongir**

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## **MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYA TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY ASOSI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mamlakatimizda meva-sabzavotchilik sohasini takomillashtirish va meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish sohasida meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasini tashkil etishdagi muammolar va ularning yechimi hamda istiqbolda meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

**Introduction.** Theoretical lexicography studies the history of lexicography, types of dictionaries, requirements for dictionaries, critical analysis of existing dictionaries, practical lexicography deals with the study, compilation, improvement and consumption of a certain type of vocabulary. Practical lexicography involves the application of general theoretical principles and rules of lexicography in the process of creating a dictionary.

**Research methods.** The ambiguity of terms, the meaning of terms, the essence of the concept, the excessive length, complex phrases are inconvenient, with an excessive number of foreign terms. The creation of a glossary of terminology in various fields in response to the above problems is an urgent task of modern lexicography

**Results and discussions.** It is very important for a lexicographer to work with a specialist in the field from the beginning to the end of the terminology system development process. There are good reasons for this. When developing a dictionary of common words, the lexicographer herself can easily provide accurate and detailed explanations of words, as well as develop examples of authorship. To explain specific terms and understand the situations in which they are used, the lexicographer must have not only linguistic knowledge, but also an understanding of this specific area.

Bilingual dictionaries are more practical than textual content. This, of course, requires a lot of volumes. For this reason, it is not for nothing that monolingual dictionaries cover more terms than translation dictionaries. For dictionaries of practical translation, the functional value of the term is important, that is, the user must be able to use the dictionary in order to understand a certain word in the correct context, understand it from a communicative point of view and understand it herself.

**Conclusion.** Bidirectional dictionaries do not mean they are bicultural. The lexicographic interpretation of the tourism terms in active and passive translation dictionaries differs: in passive dictionaries an explanation of a foreign word in the native language is given, in active dictionaries foreign equivalents are found by means of a word in the native language.

**Kalit so‘zlar:** Meva-sabzavot, klaster, kooperatsiya, dehqon xo‘jaliklari eksport, meva-sabzavot bozori, raqobat, qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash, saqlash, agrologistika, meva-sabzavotchilik klinikasi, oziq-ovqat xavfsizligi.

**Kirish.** Bozor munosabatlari sharoitida meva—sabzavotchilik majmuida islohotlarning navbatdagi bosqichlarida mamlakatimiz rahbariyati tomonidan belgilab berilgan yo‘nalishlarda va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda integratsion jarayonlarni sifat jihatidan yangi tashkiliy iqtisodiy aloqalar va bozor subyektlarini tashkil etish xususiy holatda agrosanoat klaster-kooperatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Mamlakatimizda meva-sabzavotchilik sohasini takomillashtirish, shu jumladan meva-sabzavot mahsulotlari ekiladigan maydonlarni, saqlash va qayta ishlash quvvatlarini sezilarli oshirish, mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun xalqaro moliyaviy institutlarning mablag‘larini faol jalb etishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

«Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish»[1] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi kuchli raqobat sharoitida meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari va agroklasterlari bo‘yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. mamlakatimizda meva-sabzavotchilik sohasidagi fermer va dehqon xo‘jaliklari klaster-kooperativlar, ayniqsa dehqon xo‘jaliklari mayda tovar hajmdagi ishlab chiqarish va mahsulot hajmiga ega bo‘lgani holda ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini bozorda mustaqil ravishda sotish uchun olib kirishda kooperatsiyaga birlashib mahsulot ishlab chiqishiga nisbatan ko‘proq moddiy resurslar va ish vaqtin sarflashi kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasi – bu ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish shakli bo‘lib, unda alohida jismoniy shaxslar va subyektlar faoliyati ixtiyoriylik asosida birlashtiriladi. Vertikal (tarmoqlararo) meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasi qiymat zanjiri bo‘yicha yagona pirovard maqsadga yo‘naltirilgan tarmoq korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikdir.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari eksport ishlari amalga oshirilmoqda. Qishloq xo‘jaligi sohasida butun dunyo tajribasida o‘zini oqlagan yangi tizim — klaster-kooperatsiya tizimiga o‘tish, ular faoliyatini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratib kelinmoqda.

Qishloq xo‘jaligida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘z mahsulotlarini raqobatlari bozorda sotishi natijasida, meva-sabzavot mahsulot ishlab chiqarish va gayta ishslash bilan bog‘liq harajatlarni qoplashi va ma’lum miqdordagi foydaga ega bo‘lishi lozim. Ushbu foya miqdorigina meva-sabzavot mahsulot ishlab chiqarishning kelajakdagi istiqbolli rivojlanishini hal etuvchi omil hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi va agroklasterlar sohasida normativ-huquqiy baza shakllantirilgan. Bular, xususan, «Kooperatsiya to‘g‘risida», «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida»gi Qonunlar va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlardir.

Biroq, meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiya masalalarini tartibga soluvchi normalar turli qonun hujjatlarda belgilanganligi ularni amaliyotda joriy etish muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu sohadagi barcha normalarni yagona normativ-huquqiy hujjatga birlashtirish zarurati yuzaga keladi. Shu sababli ham meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperatsiyasini rivojlantirish va uning eng muhim prinsipial yangi jihatlarini ko‘rib chiqamiz lozim.

O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavot mahsulotlari asosan xususiy tarmoqda yetishtirilayotgan bo‘lib, uning 70-80 foizi dehqon va fermer xo‘jaliklari zimmasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bugungi kunda bog‘dorchilik sohasidagi yirik tadbirkorlik subyektlarining soni ortishi meva-sabzavot yetishtiruvchi xususiy tarmoq o‘rtasida raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday tizimda mavsumiy pishib yetiladigan va transportda tashishga ko‘p hollarda noqulay bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari juda ko‘p sonli, joylashuvi jihatidan tarqoq hamda hajmi kichik dehqon va fermer xo‘jaliklarining raqobat kurashida ishtiroy qilishlari uchun ularning kooperatsiyaga birlashishlari muhim ahamiyat kasb qiladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qator tashkiliy-iqtisodiy hamda huquqiy asoslari yaratilmoqda. Meyoriy-huquqiy hujjatlarda meva-sabzavotchilik kooperativlarini tashkil etish tartibi, ularning turlari, shakllari va faoliyatining huquqiy va iqtisodiy asoslari, kooperativga a’zo bo‘lish hamda pay ulushlarini kiritish shartlari va boshqalar belgilangan. Meva-sabzavotchilik mahsulotlari kooperativi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari: fermer, dehqon xo‘jaliklari va shaxsiy tomorqa yer egalari va xo‘jaliklar egalari tomonidan ixtiyoriylik tamoyillari asosida tashkil etilgan tijorat tashkiloti shaklida bo‘ladi.

Meva-sabzavotchilik kooperatsiyalarini tashkil etishdan maqsad – kooperativ a’zolarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda ishlab chiqarish faoliyatini yuritish. Majburiy sharti – ularning mulkiy pay ulushlarini birlashtirish va kooperativ faoliyatida shaxsan ishtiroy etishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdagي “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388 [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyundagi “Uzumchilikni

rivojlantirish klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalg‘ qilishni davlat tomonidan qo‘llab -quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5200 [3] va 2021 yil 15 dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab -quvvatlash, tarmoqga klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-52-sonli qarorlari[4] meva-savzavotchilik faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasi masalalari ko‘plab xorijlik olimlarning, xususan, rus iqtisodchi olimi A.V.Chayanov, kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatini mustaqil ravishda o‘z faoliyatini birlashtiruvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari mushtarakligini ta‘min etuvchi munosabat sifatida tariflaydi. Iqtisodchi olim tomonidan bu yerda asosiy e’tiborni mol-mulk emas balki kooperatsiya munosabatlariga integratsiyalashuvi manfaatlارiga xizmat qilishga qaratish lozimligini ayтиб o‘tilgan.

A.V.Chayanovning fikriga ko‘ra «Kooperatsiyada kapital xo‘jayin emas, aksincha u-xizmatkor. Kooperatsiya dehqonga nafaqat foyda olishni ta‘minlashda yordam berishi lozim, balki uning bilimlarini, malakasini oshirishga ham xizmat ko‘rsatishi kerak» ekanligi ta‘kidlanadi [5].

Kooperatsiyaning muhim iqtisodiy mohiyati asosini - kooperatsiyaga birlashishdagi erkin subyektlar ixtiyoriyligi, koopersiya munosabatlarini boshqarishdagi demokratiya, kooperatsiya natijasida olinadigan foydani taqsimlashdagi iqtisodiyadolat tamoyili ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Bugungi kunda ham A.V.Chayanovning qishloq xo‘jaligidagi kooperatsiyasi mohiyatiga bergen tarifidagi – kooperatsiyaning qishloq xo‘jaligidagi mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga o‘z mustaqil balansga ega bo‘lgan, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatidagi maqomini yo‘qotmagan holda, birgalikda ko‘proq iqtisodiy samara olishni ko‘zlab hamkorlik qilish masalasi masalasi ekanligi o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Iqtisodchi olimlar o‘rtasida kooperatsiyaning iqtisodiy mohiyatiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, I.N.Buzdalov, «Kooperatsiya turli xo‘jalik yurituvchi subyektlarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u o‘zida shaxsiy, jamoa va ijtimoiy manfaatlarni birlashtiradi, alohida insonlarning ijodiy mehnatini rag‘batlantiradi. Ayni paytda insonning ijtimoiy kafolati bilan birga, sotsial himoyasini ta‘min etadi» deb fikr yuritadi[6].

Shuningdek, M.I.Tugan-Baranovskiy asosiy e’tiborni kooperatsiya shakllari va kooperatsiya jarayonining ijtimoiy jihatlariga qaratib, uni ijtimoiy harakat sifatida talqin qilgan bo‘lsa, A.V.Chayanov o‘z ishlarida kooperatsiyaning iqtisodiy jihatlarini tadqiq etib, asosiy e’tibor mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga qaratilgan bo‘lib, kooperatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy tabiat o‘scha davr nuqtai-nazaridan talqin etiladi.

Mayda yakka dehqon xo‘jaliklarining moddiy-texnik bazasi juda zaifligi, mahsulotlarning tovarlilik darajasi pastligi xo‘jaliklarning iqtisodiy emas balki ko‘proq ijtimoiy subyekt sifatida faoliyat yuritishiga olib kelgan va kooperatsiya jarayoniga to‘siq bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlari kooperatsiyasining umumiyligi muammolarini o‘rganish bo‘yicha iqtisodchi olim R.X.Ergashevning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi– bu qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan o‘zlarining iqtisodiy va boshqa talablarini qondirish maqsadlarida tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari va ularning hamkorlari tizimi.”Qishloq xo‘jaligi kooperativi– bu xo‘jaligi yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. U o‘zida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan kooperativ a’zolarining moddiy va boshqa talablarini qondirish maqsadida pay badallarini birlashtirishga asoslangan hamkorlikdagi ishlab chiqarish va boshqacha xo‘jaligi faoliyat yuritish tashkilotlarini bildiradi” [7] degan tarif bizning fikrimizcha masalani to‘liqroq yoritadi.

Ularning asarlarida meva-sabzavot mahsulotlarning iqtisodiy samaradorlik masalalari bat afsil ko‘rib chiqilgan, samaradorlik darajasini baholash usullari, uni oshirish yo‘nalishlari va yo‘llari o‘rganilgan. Biroq, ko‘plab muammolar muhokama qilinganiga qaramay, olimlar meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslari masalasida bir fikrga kela olishganlari yo‘q. Meva-sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasi muammosini yanada chuqurroq o‘rganish meva-sabzavotni qayta ishlash va saqlash korxonalarining rivojlanish zaxiralalarini har tomonlama iqtisodiy baholashni va meva -sabzavot mahsulotlar kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy asoslariga oqilona ilmiy va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida meva-sabzavot klasterini rivojlantirish masalalari va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslash, omilli tahlil va qiyosiy tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimiz hududlari bo'yicha meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, qayta ishslash va saqlash borasida aniq ixtisoslashuv mavjud bo'lib barcha respublika viloyatlarida ham tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda meva-sabzavot yetishtiriladi qayta ishlanadi va saqlanadi hamda bu borada katta imkoniyatlar mavjud.

Olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, respublikada sabzavot yetishtirish miqdorlari 2005-2020 yillarda barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha o'sgan (1-jadval). Sabzavot mahsulotlari ekin maydonlari 2005 yildagi 137,7 ming hektar o'rniga 2020 yilga kelib 220,5 ming hektarni tashkil qilgan va ushbu yillar davomidagi o'sish 155,1 foizga teng bo'lgan. O'rtacha hosildorlik esa mos ravishda 215,8 sentnerdan 301,6 sentnerga ortib, umumiy o'sish 140,6 foizni tashkil qilgan. Natijada yetishtirilgan yalpi hosil miqdori 2005 yildagi 2971,6 ming tonna o'rniga 2020 yilda 6650,3 ming tonnani tashkil qilgan va yalpi o'sish 2,2 martadan ortiqni tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasida sabzavot yetishtirish borasida yuz berayotgan yalpi o'sish tendensiyasi mutanosib ravishda mamlakat janubida joylashgan Qashqadaryo viloyatida ham kuzatiladi. Jumladan, 2005 yilda viloyatda jami sabzavot ekin maydonlari miqdori 28,1 ming hektarni tashkil qilgan holda, 2020 yilgan kelib 38,1 ming hektarga yoki 128,8 foizga ortgan bir paytda yalpi mahsulot yetishtirish miqdori mos ravishda 549,3 ming tonnadan 810,3 ming tonnaga yoki 142,0 foizga ortgan. Yalpi mahsulot hajmidagi o'sish sur'ati yuqoriligi ekinlar hosildorligining ekin maydonlari o'sishiga qaraganda tezroq o'sishi hisobiga yuz bergan. Sabzavot ekinlari hosildorligi viloyatda respublika ko'rsatkichiga nisbatan o'rganilayotgan yillar turlicha nisbatlarda bo'lib, asosan 2005 yildan keyin 29,5 ga pasayib borgan.

#### 1-jadval

#### Respublika va Qashqadaryo viloyati bo'yicha sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlari o'zgarishi dinamikasi (барча тоифадаги хўжаликларда)<sup>1</sup>.

Ko'rsatkichlar		Yillar bo'yicha								2020 yilda 2005 yilga nisbatan, (%)
		2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	
Respublika bo'yicha	Ekin maydoni, (ming ga)	137,7	173,0	194,1	206,0	208,3	209,7	213,6	220,5	160,13
	Yalpi hosil, (ming tonna)	2971,6	6346,4	1028,1	11242,5	11433,6	6129,5	6481,2	6650,3	223,80
	Hosildorlik, (s/ga)	215,8	252,5	277,2	285,2	297,1	292,3	303,4	301,6	139,76
Qashqadaryo viloyati bo'yicha	Ekin maydoni, (ming ga)	28,1	28,6	29,1	30,9	34,6	24,6	36,2	38,1	135,59
	Yalpi hosil, (ming tonna)	549,3	559,6	579,1	580,1	685,9	434,0	780,1	810,3	147,52
	Hosildorlik, (s/ga)	195,4	195,6	199,0	187,9	198,2	176,4	215,4	212,7	108,85
Qashqadaryo (%)		90,5	77,5	71,8	65,9	66,7	60,3	71,0	70,5	x

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика кўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

viloyati hosildorligi Respublika ko'rsatkichiga nisbatan	(+, -)	-20,4	-56,9	-78,2	-97,3	-98,9	-115,9	-88,0	-88,9	x
--	--------	-------	-------	-------	-------	-------	--------	-------	-------	---

Meva-sabzavot mahsulotlari aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdagi eng zarur mahsulotlardan biridir. Aholi soni o'sib borishini hisobga oladigan bo'lsak, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish xajmlarining doimiy ravishda o'sib borishini ta'minlash zarurati hisoblanadi. Meva-sabzavot mahsulotlari bilan aholini tibbiy meyorlar talabi darajasida ta'minlash va bunda mahsulot sifati saqlanishi va qayta ishlanishiga muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda va Qashqadaryo viloyatida sabzavot yetishtirish hosildorlik ko'rsatkichlari yildan-yilga oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2020 yilda sabzavot mahsulotlarning hosildorligi 301,6 s/ga bo'lgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 2005 yilga nisbatan 85,8 sentrغا oshib 139,76 foizni tashkil etdi. Qashqadaryo viloyati bo'yicha ushbu ko'rsatkich mutonosibon 212,7; 17,3 va 108,85 ni tashkil etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Qashqadaryo viloyatining sabzavot yetishtirish hosildorligi respublika ko'rsatkichiga nisbatan 20,4 sentr/gadan 88,9 sentr/gagacha past ko'rsatkichda bo'lmoqda. Chunki Qashqadaryo viloyati sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda tuproq-iqlim sharoiti, suv masalasi boshqa omillar hisobiga shunday ko'rsatkichga ega bo'lmoqda.

Qashqadaryo viloyatida sabzavot yetishtirish masalasida eng asosiy ko'rsatkichlardan biri ekin maydonlari hisoblanadi, ya'ni 2020 yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha sabzavot yetishtirish ekin maydoni 38,1 ming gektarni tashkil etib 2005 yilga nisbatan 10 ming gektarga oshib respublikadagi ulushida juda kam ulushga ega bo'lmoqda. Meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari o'zgarishi eng avvalo mahsulotlarni sotish saqlash va qayta ishslash sohasidagi dehqon uchun qulayliklar va bozorda talab darajasining doimiyligiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda ushbu ikki omil asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunki asosiy meva-sabzavot mahsulotlari dehqon xo'jaliklari, va tamorqa yer egalarida yetishtirilishi, uncha katta bo'limgan investitsiya hisobiga ham mahsulot hajmi oshishini ta'minlashi mumkin. Ammo, ayni paytda meva-sabzavot mahsulotlarni yetishtirish, saqlash va qayta ishslash hamda sotish sohasidagi muammolar mahsulot hajmining keskin kamayishiga olib keluvchi kuchli omillar hisoblanadi.

Respublikamiz sifatlari jahon bozori standartlariga javob beruvchi meva yetishtirish borasida ham katta imkoniyatlarga ega (2-jadval).

## 2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha meva yetishtirish ko'rsatkichlari o'zgarishi dinamikasi (barcha toifadagi xo'jaliklarda)

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha	Ko'rsatkichlar	Yillar bo'yicha								2020 yilda 2005 yilga nisbatan, (%)
		2005	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha	Ekin maydon, (ming ga)	208,2	235,3	266,4	279,6	284,3	285,1	291,3	299,6	143,90
	Yalpi hosil, (ming tonna)	1297,9	2178,8	3412,8	3760,2	3735,0	3677,9	3932,5	3996,6	307,93
	Hosildorlik, (s/ga)	62,3	92,6	128,1	134,5	131,4	129,0	135,0	133,4	214,13

Qashqadaryo viloyati bo'yicha	Ekin maydoni, (ming ga)	17,3	18,2	19,6	21,1	22,1	22,6	23,3	24,6	142,20
	Yalpi hosil, (ming tonna)	130,9	154,3	160,2	176,3	180,1	182,4	227,2	242,6	185,33
	Hosildorlik, (s/ga)	75,6	84,7	81,7	83,3	81,4	80,7	97,5	98,6	130,42
Qashqadaryo viloyati hosildorligi respublika ko'rsatkichiga Nisbatan	(%)	121,35	91,47	63,78	61,93	61,95	62,56	72,22	73,91	x
		13,3	-7,9	-46,4	-51,2	-50	-48,3	-37,5	-34,8	x

Tadqiqotlar natijasida tahlillar ko'rsatishicha, respublikamizda so'nggi o'n besh davomida bog'lar maydoni ham kengayib bormoqda. Xususan, 2005 yilda barcha toifadagi xo'jaliklar ixtiyorida jami 208,2 ming gektar bog'lar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2020 yilga kelib bog'lar maydoni 299,6 ming gektarni tashkil qilib, 143,9 foizga ortgan. Shu davrda bog'lar hosildorligi 62,3 sentnerdan 133,4 sentnerga yoki 2,1 martaga oshgan bo'lsada, hosildorlik borasida erishilgan natijalar juda katta ko'rsatkich emas. O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik hududlarining tuproq-iqlim unumdarligini, meva yetishtirish sohasidagi ko'p asrlik boy tajribalarimizni, sohada shakllangan mutaxassislar va ilmiy salohiyatimizni hisobga oladigan bo'lsak, ko'p miqdordagi investitsiyalar sarf qilmasdan turib ham 200-250 sentnerdan hosil olishni ta'minlashi mumkin. Shu bilan birgalikda pakana bo'yli bog'larda 400-500 sentnerdan hosil ko'tarish mukinligini amaliyot ko'rsatib turibdi.

Qashqadaryo viloyatidagi bog'lar hosildorligiga e'tibor beradigan bo'lsak, natijalar juda past. Jumladan, viloyat bo'yicha barcha toifadagi xo'jaliklarda 2005 yilda 75,6 sentnerdan hosil olingan bo'lsa, keyingi yillarda oshib borgan bo'lsada 2020 yilga kelib 98,6 sentnerdan o'rtacha hosil olishga erishilgan. Bu ko'rsatkich o'rtacha respublika ko'rsatkichidan ham (26-32 foizga) ancha past.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha meva yetishtirishning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan ekin maydonalari yildan yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida 2020 yilda meva yetishtirishning ekin maydoni 2020 yilda 299,0 ming gektarni tashkil etib 2005 yilga nisbatan 91,4 ming gektarni tashkil etdi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha ushbu ko'rsatkich 7,3 ming gektarga oshdi.

- Qashqadaryo viloyati meva yetishtirish bo'yicha respublika ko'rsatkichlariga nisbatan ancha hosildorlikning asosiy sabablari tahlillarimizga asosan quyidagilardan iborat:

- bog'dorchilik va uzumchilik sohasidagi fermer va dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalari aksariyat hollarda madaniy dehqonchilik hudularidan uzoqda, cho'l va cho'l oldi hududlarida tashkil etilganligi vaqt sarfi, transport muammosini paydo qilishi bog'dorchilik sohasiga investitsiya jalg qilishni pasaytiradi;

- bog'dorchilik va uzumchilik asosan qo'l mehnatini ko'p talab qiladigan soha bo'lishi bilan birga, cho'l hududlarida bog' yaratish, unga ishlov berish, tuproq-iqlim sharoitlaridan foydalanish yanada og'ir;

- bog'dorchilik va uzumchilik sohasini rivojlantirish so'nggi 5-6 yil davomida juda katta e'tibor qaratishlishi, bog' barpo etish va eski bog'larni tiklash va rekonstruksiya qilish jarayoniga jalg qilingan investitsiyalar faqat ma'lum muddat o'tgandan so'ngina natija bera boshlashi tufayli yaqin yillarda Qashqadaryo viloyatida keskin sifat va samaradorlik o'sishi kutmoqda;

- Qashqadaryo viloyatida bog'dorchilik va uzumchilik sohasi umuman ko'p qismi cho'l oldi va cho'l hududlarida, lalmi dehqonchilik qilinadigan massivlarda joylashganligi, SUV muammosi, suvdan foydalanish masalasini murakkablashtiradi. Bunday yerlarda SUV tanqisligi

masalasi mavjudligini ko‘rish mumkin;

- Qashqadaryo viloyatidagi mavjud bog‘larning ko‘pchilik qismi suv yetishmasligi hisobiga nobud bo‘lmoqda. Chunki, bog‘dorchilik hududlaridagi bog‘larga suv yetkazib berishda ko‘pchiliq qismi nasoslardan foydalaniladi. Shu boisdan suv tanqisligi bilan birga, nasoslardan foydalanish bilan bog‘liq sarf harajatlar (yoqilg‘i-moylash materiallari, elektr energiyasi) yuqoriligi ham suv ta’minotiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

**Xulosa va takliflar .** Ushbu maqola orqali biz yuqoridagi tahlildan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston sharoitida sohani barqaror rivojlantirishda quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq sanaladi:

-tadqiqotlar natijasida kooperatsiya- bu barcha ishtirokchilar uchun o‘zaro foyda va har kimning manfaatlarini qondirish asosida resurslarni kamroq sarflash bilan umumiyl maqsadga erishish uchun sheriklar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda o‘z hamkorligi ma’nosida namoyon bo‘ladigan iqtisodiy hodisadir.Kooperatsiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga o‘z iqtisodiyotini rivojlantirishda yordam berish va samaradorlikni oshirishdan iborat

- qishloq joylarida faoliyat ko‘rsatib, bevosita qishloq xo‘jalik mahsulotlarini innovatsion resurs tejaydigan usulda saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan namunaviy korxonalar faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga soliq, bojxona va boshqa imtiyozlarni joriy etish;

- respublikaning har bir qishloq hududida sanoat korxonalarining ixcham va kichik shoxobchalarini rivojlantirish asosida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik xom ashyo mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlashni ko‘paytirish, shuningdek, ichki va tashqi bozorga xaridorgir, raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan tadbirlarni iqtisodiy rag‘batlantirish (valyuta ajratish, imtiyozli soliq belgilash, kreditlar ajratish va boshqalar) maqsadga muvofiq;

- tadbirkorga eksport jarayonidan oldin kredit ajratish, sug‘urtalash, tashqi bozorlarda o‘rin egallash, “geografik, iqtisodiy, moliyaviy va sifat xavflari”, transport-logistika, tegishli sertifikatlar olish, oziq-ovqat xavfsizligi va standart masalalarida har tomonlama amaliy yordam berish, xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda ishtirokini ta’minalashga ko‘mak berish maqsadida eksport-kredit tashkilotlarini tashkil etish yoki ushbu masalalarni hal etishni mas‘ul vazirlik va idoraga yuklash;

- raqamli innovatsion texnologiyalarga asoslangan “Agropark” va “Agrosanoat” ko‘p tarmoqli agrologistika majmularini har tomonlama qulay joylarda tashkil etish. Ushbu majmuuda barcha sharoitlar yaratilgan bo‘lib, ya’ni mahsulot sotish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, biolaboratoriya xizmati, standartlashtirish va eksportgacha bo‘lgan barcha jarayonlar tizimini yaratish;

- “Meva-sabzavotchilik klinikasi” xizmatini joriy etish;

- meva-sabzavot va qayta ishlangan mahsulotlarning sifati va xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni tartibga soluvchi huquqiy meyoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish, meva-sabzavotchilikni uzoq muddat barqaror rivojlanishini ta’minalab, tarmoq samaradorligini oshirish orqali oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish, uning xavfsizligini ta’minalash, eksport geografiyasini kengaytirish hamda xalqimizning turmush sharoitini oshirish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli farmoni. // www.lex.uz.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 martdag‘i “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5388 qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 28 iyundagi “Uzumchilikni

rivojlantirish klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab -quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5200 sonli qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab -quvvatlash, tarmoqga klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-52-sonli qarori.

5.Chayanov.A.V. Osnovniye idei i formi organizatsii selskoxozyaystvennoy kooperatsii. – Moskva. -1927. - 357 b.

6.Buzdalov.I.N. Vozrojdeniye kooperatsii. – M.: Ekonomika.-1990. –81 b.

7.Ergashev R.X. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, Darslik, T.: “Moliya-Iqtisod”, 2018, 45-47 b

8. Ergashev R. X. Primeneniye sifrovix texnologiy v selskom xozyaystve //development issues of innovative economy in the agricultural sector. – 2021. – s. 911-914.

9. Khidirovich E. R., Bokiyevich K. A. State support for small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. – 2021.

10. Ergashev, R. K., and A. D. Ravshanov. "Ways of Strategic Development and Increase of Competitiveness of Agricultural Enterprises." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 99-105.

11. Rakhmatulla Khidirovich Ergashev, Elchiev Javohir Organizational and Economic Mechanisms for Improving Labor Efficiency in Service Enterprises. [https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/Vol. 7 \(2021\): Academic Journal of Digital Economics and Stability \(Spain\) /](https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/Vol. 7 (2021): Academic Journal of Digital Economics and Stability (Spain) /).

12. Ergashev, R. K., and A. D. Ravshanov. Prospects for Strategic Development of Agricultural Enterprises. <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/issue/view/2021,9, 504-510>